

**PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA MEDIATEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA ELEKTRON
KUTUBXONALARNING AHAMIYATI.**

F.K.Boltaev

Afshona Abu Ali ibn Sino

nomidagi jamoat salomatligi

texnikumi direktori

Annotatsiya

Ushbu maqolada yurtimiz bo'ylab axborot resurs va yoshlar markazlari faoliyatlari yo'lga qo'yilganligi va uning bugungi kundagi ahamiyati to'grisida so'z borgan. Mazkur bilim, ma'rifat va ziyo o'choqlarida ishni keng ko'lamli, foydali tashkil etish borasida kerakli tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Mediatexnologiya, portativ, kommunikatsiya, avtomatlashtirish, premyera, didaktika, ekspert, mediapedagog, mediaolam, mediamadaniyat, klassifikator, indeks, relevant.

Zamonaviy jamiyat axborotga asoslangan. Dunyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlarida bugun axborot olish imkoniyati emas, balki uning haddan ortiq ko'pligi muammo tug'dirayotgani kuzatilmoqda. Ko'p hollarda ommabop axborotlar ummonidan relevant axborotni ajratib olish juda mushkul kechmoqda. Manbalarning muvofiqlashmaganligi, xilma-xilligi va ishonchsizligi axborotni tashkil qilish va boshqarishni murakkablashtirmoqda. Shunday ekan, ishonchli axborotni tanlash, tahlil qilish va umumlashtirishga katta e'tibor qaratish talab etiladi. Bundan tashqari, axborotni aksariyat hollarda mutaxassislar emas, balki havaskorlar tayyorlayotgani

bois, uning sifatiga ham alohida e'tibor berish zarur. O'qish jarayonida tanqidiy yondashish, matn va uning manbasini tahlil qilish zarur bo'ladi, chunki axborot yaratuvchisining nuqtai nazarini aks ettirishi va manfaatlariga xizmat qilishini unutmaslik lozim.

Axborotni tanqidiy qabul qilish bo'lg'usi jurnalist axborot savodxonligining darajasini belgilovchi omil hisoblanadi. Axborot hajmi ortib borgani sari uning o'lchamlari doirasi ham ortib boraveradi. Bosma nashrlardan tashqari ovozli, grafika va boshqa turdagi raqamli materiallar soni ham ortib bormoqda. Texnologiyalar taraqqiyoti samarasi o'laroq axborot oqimi tezligi ham beqiyos tarzda oshmoqda. Bunday sharoitda foydalanuvchilardan multimedia kontentidan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish hamda yangi texnologiyalardan xabardorlik talab etiladi. Kutubxonalar misolida oladigan bo'lsak, bu nafaqat yangicha shakl va o'lchamlarga o'tishni, balki o'quvchilarga yangi tizimlardan foydalanishga yordam berishni ham nazarda tutadi. Bu ma'noda pedagoglarning foydalanuvchilarni o'qitish sohasida, jamoatchilik bilan aloqalar va reklama sohalarida chuqur bilimga egaligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Axborot xizmatlari bugungi kunda jamiyatning barcha tarmoqlariga kirib borayotgan va rivojlanayotgan soha sifatida tan olingan. O'zbekistonda ham keyingi yillarda vazirlik, muassasa va idoralar tomonidan axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Elektron kitoblar (portativ). Zamonaviy elektron kitoblarning afzallik va kamchiliklari. «Elektron kitob» tushunchasining paydo bo'lishi asosan no'anaviy kitob shaklida kirib kelganidadir. Bu tushunchaning keng rivojlanishi va jamiyat hayotida o'ziga xos o'rin egallashiga axborot texnologiyalarining rivojlanishi sabab bo'ldi. Elektron kitoblar tez suratlarda jamiyat hayotining bir bo'lagiga aylandi. Bugungi kunda deyarli barcha kitoblarning elektron shakli mavjud bo'lib, ular internet tarmog'ida faol ulashilmoqda. Bu tushuncha ba'zida «elektron nashr» termini deb ham

yuritiladi. “Elektron nashr” - bu tashkiliy ishlar mahsuli bo'lib. bunda kitob muallifi ijodiy mahsulotining barcha mavjud belgisi ko'rinishlarda maxsus xotira qurilmalarida (ma'lum bir kompyuter foydalanuvchilari auditoriyasi uchun) axborot mahsulotiga aylantirilishidir. Demak, elektron kitoblar apparat qurilmalarida bir shaklda ma'lum auditoriya uchun ishlab chiqilar ekan. An'anaviy kitob esa o'z navbatida hech qanday auditoriya tanlamaydi. Elektron kitoblarning afzalliklari: portativ ekanligi: USB flesh xotirali disklarda 10, 100, 500 dan ortiq kitoblarni saqlash mumkin bo'ladi; an'anaviy kitoblar kabi anchagina arzon hisoblanadi, ya'ni talab etiladigan pul asosan mualliflik gonorari, korrektor, bosmachilar mehnati uchun to'lanadi: ko'zni toliqtirmaslik uchun - maxsus himoya rejimlari mavjud bo'lib, ular orqali matn shrifti, kattaligi va rangini o'zgartirish mumkin; ma'lum bir kontekst matnini qidirish imkoniyati mavjud bo'lib, bunda ixtiyoriy matn fragmentini topish mumkin.

Elektron kitoblarning kamchiliklari: imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qulay, ammo uning ham o'z kamchiligi bor, bu - elektr energiyasi sarfidir; bugungi kunda deyarli 10 ta elektron kitob o'quvchilarining 9 tasi doimiy ravishda smartfonlar va telefonlarni elektr ulagichlariga ulaydilar; o'qish uchun maxsus dasturlar va qurilmalar zarur bo'ladi;

An'anaviy va elektron kitoblar orasidagi afzallik va kamchiliklar tahlili shuni ko'rsatdiki, deyarli farq ularning bosma va virtual kitob shaklida ekanligidadir. Ammo, elektron kitoblarda energiya sarfi kuzatilsada ba'zi qurilmalar elektr sarfisiz bir necha kun yoki oylab maxsus quvvatlagichlar asosida ishlashi mumkin, o'z navbatida an'anaviy kitoblarning foydali jihatlari anchagina ko'proqdir. Ustunlik esa o'z navbatida aynan an'anaviy kitoblar tomonida bo'ladi. Chunki kitobni mutolaa qilganda uni qo'lga olib, sahifalarni his etish orqali olinadigan ma'lumot elektron kitobga nisbatan anchagina ustunroqdir.

Avtomatlashtirilgan kutubxona — o'zaro bog'langan kompyuterlashgan avtomatik tizim. Asosiy vazifalari: kutubxonadagi barcha kitoblar, jurnallar va boshqa hujjatlarni to'la qayd qilish; klassifikator bo'yicha indekslar qo'yish; bibliografik

qidirish; tanlab olingan kitoblarning referatlarini ko'rib chiqish; kutubxonaga a'zo bo'lganlarni ro'yxatga olish; buyurtmalarni ro'yxatlashtirish; katalog va kartochkalarni hamda qayta ro'yxatga olish varaqalarini bosmadan chiqarish, kitoblarni abonentlarga berish va qabul qilishni qayd qilish, muddatlarni cho'zib berish; moliyaviy hisobotlar; yangi kitoblarni ro'yxatga olish va holatini kuzatish; markazlashtirilgan buyurtmalar berish; kutubxonaga tushgan hujjatlarni doimo kuzatib borish va boshqa avtomatlashtirilgan kutubxonada elektron kataloglarni tuzish va yaratish dastlabki qadam bo'lishi zarur.

Bu vazifalarni bajarish uchun avtomatlashtirilgan kutubxona ma'lumotlar bazasi kamida 1 mln. yozma ma'lumotga mo'ljallangan bo'lishi kerak. Avtomatlashtirilgan kutubxonada bir-biri bilan bog'langan kompyuterlar tizimidan foydalaniladi. Avtomatlashtirilgan kutubxonaning ichki kompyuter tizimi boshqa shahar va davlatlarning o'xshash kutubxonalariga aloqa zanjirlari orqali bog'lanadi. Natijada yangi axborotlarni tezkor usullarda uzatish, qabul qilib olish, saqlash va ularga ishlov berish imkonini mavjud bo'ladi. Avtomatlashtirilgan kutubxonada elektron kataloglar; turli sohalarga doir axborot bazalari va banklari; elektron kataloglarning bosma ko'rinishida tayyorlangan analoglari; har oyda va yil choragida chiqariladigan sohaslararo adabiyotlar ko'rsatkichi; maxsus elektron jurnallar va boshqa tashkil qilinadi.

Mamlakatimiz bo'ylab axborot resurs va yoshlar markazlari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Agarda mazkur bilim, ma'rifat va ziyo o'choqlarida ish to'g'ri tashkil etilsa, amalda ular media va axborot savodxonligi markazlariga aylanishi mumkin. Bundan tashqari, deyarli barcha ta'lim muassasalari, jumladan, oliy, o'rta va o'rta-maxsus ta'lim muassasalari o'z veb-saytlariga ega bo'lib, ularning barchasi yagona Ziyonet Milliy ta'lim tarmog'iga birlashtirilgan. Ta'lim muassasalari tarkibida mediamahsulotlarini tashkil etishning ijobiy natijasi sifatida ijodkor yoshlarning mediakontent yaratishga qaratilgan loyihalardagi faol ishtirokini ko'rsatish joiz. Bularning barchasi respublikamiz ta'lim tizimida media va axborot savodxonligini ta'minlash uchun muhim platforma vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1, Djurayevna, K. M. (2021). Russian Language as A Foreign Language in Medical Universities. Eurasian Journal of Research, Development and Innovation, 3, 14-18.
- 2, Койилова, М. Д., & Кароматов, И. Д. (2017). Фасоль как лечебное средство (обзор литературы). Биология и интегративная медицина, (8), 114-133.
- 3, Койилова, М. Д. (2018). Синяк обыкновенный, итальянский. Биология и интегративная медицина, (9), 117-121.
- 4, Койилова, М. Д. (2019). Синяк обыкновенный, итальянский. Биология и академических исследований, 3(9), 137-141.
- 5, Койилова, М. Д. (2020). Изменение Культуры Семейных Ценностей В Условиях Перехода К Модели Современной Семьи. In Сборники конференций НИЦ Социосфера (No. 8, pp. 164-167). Общество с ограниченной ответственностью "Научно-издательский центр" Социосфера".
- 6, Djuraevna, K. M. (2023). Methodology of Inclusion of Healthy Lifestyle Skills in Adolescents with Deviant Behavior.
- 7, QURBONOVA, G., & KOYILOVA, M. DEVIANT XULQLI O'SMIRLARNI MEHNAT VOSITASIDA TARBIYALASH. Pedagogik mahorat, 102.
- 8, Qoyilova, M. (2022). Xulqi og 'ishgan o 'smirlarni mehnat vositasida tarbiyalash. Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali, 2(2).
9. Mekhriniso Qoyilova. The need for professional competence development in the training of senior nurses. Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations Journal home page: <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>
10. Khoyilova Mekhriniso Djuraevna MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN ISSN 2694-9970 Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 17 Oct 2021 Copyright (c) 2021 METHODS OF FORMATION OF POSITIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS.

11. Qoilova , M. (2023). DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES IN THE TRAINING OF SENIOR NURSES THROUGH THE STRUCTURAL ANALYSIS OF PROFESSIONAL COMPETENCE AND PROFESSIONAL MOBILITY. Yevraziyskiy jurnal akademicheskix issledovaniy, 3(9), 137–141. izvlecheno ot <https://inacademy.uz/index.php/ejar/article/view/20623> DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.8371586>